

== QOIDALAR TAHRIRINING BOSHLANISHI ==

OMMAVIY OFERTA

(“Xaridlarni to‘lang — BYD Yuan Up yutib oling” promo-aksiyasida ishtirok etish uchun)

Toshkent shahri

«_____» _____ 2026 r.

Mazkur “Xaridlarni to‘lang — BYD Yuan Up yutib oling” rag‘batlantiruvchi aksiyasida ishtirok etish bo‘yicha Ommaviy oferta (keyingi o‘rinlarda — “Oferta”) “Xaridlarni to‘lang — BYD Yuan Up yutib oling” rag‘batlantiruvchi aksiyasini (keyingi o‘rinlarda — “Aksiya”) o‘tkazish tartibi, shartlari, joyi va muddatlarini belgilaydi. Mazkur Aksiya “Kapitalbank” ATB (keyingi o‘rinlarda — “Tashkilotchi”) tomonidan, Ustav asosida faoliyat yurituvchi Boshqaruv Raisi Maevskiy K.L. nomidan e‘lon qilinadi va o‘tkaziladi hamda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 369-moddasiga muvofiq, muomalaga layoqatli, noma‘lum doiradagi jismoniy shaxslarga — O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasiga ega bo‘lgan, 18 yoshga to‘lgan shaxslarga (keyingi o‘rinlarda — “Ishtirokchilar”) qaratilgan. Mazkur Oferta Ishtirokchilarga Aksiya doirasida o‘tkaziladigan yutuqli tanlovlarda ishtirok etish tartibi va shartlariga muvofiq ishtirok etish imkoniyatini taqdim etish maqsadida ishlab chiqilgan.

“Yagona umumrespublika protsessing markazi” AJ (UZCARD savdo belgisi) Aksiyaning Hamkori hisoblanadi.

Mazkur Aksiya lotereya yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yin hisoblanmaydi.

Aksiyada ishtirok etish ixtiyoriy bo‘lib, majburiy hisoblanmaydi.

Aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkaziladi.

Aksiya muddati Tashkilotchining tashabbusiga ko‘ra uzaytirilishi yoki qisqartirilishi mumkin.

Mazkur Ofertaning amaldagi tahriri internet tarmog‘ida quyidagi manzilda joylashtirilgan hamda barcha manfaatdor shaxslar uchun ochiq va erkin foydalanish imkoniyatiga ega: www.kapitalbank.uz (keyingi o‘rinlarda — “Sayt”), shuningdek Bankning mobil ilovasida (keyingi o‘rinlarda — “Ilova”).

ATAMALAR VA TA'RIFLAR

UZCARD kartasi — “Kapitalbank” ATB tomonidan chiqarilgan, UZCARD milliy to‘lov tizimiga mansub bank kartasi.

Karta egasi — “Kapitalbank” ATB (keyingi o‘rinlarda — Bank) tomonidan chiqarilgan UZCARD kartasi rasmiylashtirilgan jismoniy shaxs bo‘lib, mazkur Oferta doirasida Ishtirokchi hisoblanadi.

To'lov — UZCARD kartasidan foydalangan holda POS yoki E-POS terminallari orqali tovarlar, ishlar va/yoki xizmatlar uchun to'lov amalga oshirish operatsiyasi

Ishtirokchi — mazkur Oferta shartlariga muvofiq keluvchi hamda Oferta shartlarini aksept qilgan deb hisoblanadigan harakatlarni amalga oshirgan jismoniy shaxs.

G'olib — mazkur Oferta shartlariga muvofiq ravishda belgilangan tartibda aniqlangan Ishtirokchi.

Sovrin — Aksiya doirasida G'olibga topshirilishi lozim bo'lgan mol-mulk.

I. OFERTA PREDMETI

1.1. Mazkur Oferta Aksiyada ishtirok etish shartlarini, uni o'tkazish tartibi va joyini belgilaydi, shuningdek mazkur Ofertaning aksepti amalga oshirilgan taqdirda Tashkilotchi va Ishtirokchi o'rtasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarni tartibga soladi.

1.2. Aksiyaning asosiy maqsadi — Aksiya davrida "Kapitalbank" ATB tomonidan chiqarilgan UZCARD kartalaridan foydalangan holda naqdsiz to'lovlarni rag'batlantirish, shuningdek mijozlar faolligi va sodiqligini oshirishdan iborat.

1.3. Aksiyani o'tkazish muddati: 2026-yil 15-may kuni soat 10:00:00 dan (UTC+5) 2026-yil 15-avgust kuni soat 23:59:59 gacha (UTC+5) (shu kuni ham kiradi). Aksiyani o'tkazish muddati Tashkilotchining tashabbusiga ko'ra uzaytirilishi mumkin.

1.4. Aksiyada Tashkilotchi tomonidan chiqarilgan UZCARD kartalari hamda Ishtirokchi tomonidan Aksiya o'tkazilishi davrida amalga oshirilgan to'lovlar ishtirok etadi.

1.5. Mazkur Aksiya doirasida o'tkaziladigan yutuqli tanlov g'oliblari "Random.org" onlayn platformasi yoki ma'lum diapazondan tasodifiy son generatsiyasini yoxud ro'yxatdan tasodifiy tanlovni amalga oshiruvchi boshqa shunga o'xshash platformalar yordamida aniqlanadi.

1.6. Aksiya doirasida o'tkazilgan yutuqli tanlov natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar Tashkilotchining rasmiy veb-saytida, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida hamda ommaviy axborot vositalarida joylashtiriladi.

II. AKSIYADA ISHTIROK ETISH QOIDALARI

2.1. Tanlovda O'zbekiston Respublikasining muomalaga layoqatli fuqarolari yoki O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasiga ega bo'lgan, 18 yoshga to'lgan hamda Tashkilotchi, Hamkor va/yoki ularning yaqin qarindoshlari (turmush o'rtog'i, farzandlari, ota-onasi, aka-uka va opa-singillari) hisoblanmaydigan shaxslar ishtirok etishlari mumkin.

2.2. Quyidagi shartlarga javob beruvchi, mazkur Ofertaning 2.1-bandida ko'rsatilgan shaxslar Aksiya Ishtirokchilari hisoblanadi:

— Aksiya o'tkazilishi davrida Tashkilotchi tomonidan chiqarilgan UZCARD kartasining egasi bo'lish;

— Aksiya o'tkazilishi davrida bir martalik tranzaksiya orqali 250 000 (ikki yuz ellik ming) so'm yoki undan ortiq miqdorda To'lovni amalga oshirish (keyingi o'rinlarda — To'lov).

2.3. Aksiya davrida amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni, operatsiyalarning umumiy hajmi hamda ochilgan UZCARD kartalari sonidan qat'i nazar, har bir Ishtirokchiga yutuqli tanlovda ishtirok etish uchun faqat bitta imkoniyat taqdim etiladi.

2.4. Ishtirokchi JShShIR (PINFL) orqali identifikatsiya qilinadi va bir nechta UZCARD kartalarining mavjudligi yutib olish ehtimolini oshirmaydi.

2.5. Jismoniy shaxslar o'rtasidagi pul o'tkazmalari (P2P), naqd pul yechib olish operatsiyalari, shuningdek To'lov sifatida tasniflanmaydigan boshqa operatsiyalar Aksiyada hisobga olinmaydi.

2.6. Yutuqli tanlovlar Tashkilotchining rasmiy ijtimoiy tarmoqlardagi (Instagram) sahifalarida yoki messenjer (Telegram) rasmiy kanalida jonli efir rejimida mazkur Ofertaning 2.7-bandida belgilangan jadvalga muvofiq o'tkaziladi. Tanlov o'tkazish sanalari o'zgargan taqdirda, Tashkilotchi bu haqda efir boshlanishidan oldin www.kapitalbank.uz saytida yoki rasmiy ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarda e'lon qiladi. Ofertaning 2.7-bandida ko'rsatilgan sanalar jadvaliga muvofiq o'tkaziladi. Tanlov o'tkazish sanalari o'zgargan taqdirda, Tashkilotchi bu haqda efir boshlanishidan oldin www.kapitalbank.uz saytida yoki rasmiy ijtimoiy tarmoq sahifalarida e'lon beradi.

2.7. Yutuqli tanlov va suratga olish ishlarini o'tkazish jadvali:

Avtomobil yutuqli tanlovi:
2026-yil 24-avgustdan 28-avgustgacha.

2.8. Yutuqli tanlovni o'tkazish jadvaliga muvofiq, tanlov doirasida quyidagi sovrin o'ynaladi:

— **BYD Yuan Up Relax Green elektromobili (keyingi o'rinlarda — “Avtomobil”)**.

2.9. Avtomobil kaliti G'olibga yutuqli tanlov o'tkazilib, G'olib aniqlanganidan keyin 10 (o'n) bank kuni ichida quyidagi manzilda topshiriladi: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.

Zarurat tug'ilganda, Tashkilotchi G'olibdan shaxsini identifikatsiya qilish hamda Tashkilotchi va G'olib o'rtasida qabul qilib olish-topshirish dalolatnomasini imzolash maqsadida pasport, ID-karta yoki shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjatni taqdim etishni talab qilishga haqli.

Mazkur Oferta shartlariga muvofiq yutuqli tanlov natijasida aniqlangan G'olib sovrinni olishdan bosh tortgan taqdirda, Tashkilotchi javobgar bo'lmaydi.

II. AKSEPT QILISH TARTIBI

3.1. Mazkur Oferta aksepti Ishtirokchi tomonidan Oferta 2.2-bandida belgilangan shartlarga muvofiq To'lovni amalga oshirish orqali amalga oshiriladi.

3.2. Mazkur Ofertaning aksepti Ishtirokchi tomonidan uning barcha shartlarini hech qanday istisno va/yoki cheklolarsiz to'liq hamda so'zsiz qabul qilishni anglatadi va yozma shakldagi shartnoma tuzishga tenglashtiriladi.

3.3. Mazkur Ofertani aksept qilish orqali Ishtirokchi quyidagilarni tasdiqlagan hisoblanadi:

— mazkur Oferta shartlari bilan to'liq tanishganligi, ularga roziligi hamda ularga rioya qilish majburiyatini olganligi;

— Oferta mazmuni va uning tuzilishi bilan bog'liq ehtimoliy huquqiy oqibatlar unga tushunarli ekanligi;

— huquq va muomala layoqatiga ega ekanligi, 18 yoshga to'lganligi, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi yoki amaldagi yashash guvohnomasiga ega shaxs ekanligi, shuningdek Tashkilotchi bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishish uchun qonuniy asosga ega ekanligi, Tashkilotchi va Hamkor bilan mehnat munosabatlarida emasligi hamda Tashkilotchi va Hamkor xodimlarining yaqin qarindoshi emasligini tasdiqlaydi.

3.2. Shu bilan birga, mazkur Ofertaning 3.1-bandida nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirgan Ishtirokchi Tashkilotchiga o'zining shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga

rozilik beradi. Bunda qayta ishlash qog'oz va/yoki elektron tashuvchilarda, avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda va/yoki ularsiz amalga oshirilishi mumkin hamda quyidagi harakatlarni o'z ichiga oladi: yig'ish, yozib olish, tizimlashtirish, jamlash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), ajratib olish, foydalanish, uzatish (tarqatish, taqdim etish, foydalanishga ruxsat berish, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashni uchinchi shaxslarga topshirish), shaxssizlantirish, bloklash, o'chirish va yo'q qilish.

Shuningdek, Ishtirokchi Tashkilotchiga o'zi tomonidan taqdim etilgan hamda uning roziligi asosida tasvirga olish jarayonida olingan foto va video tasvirlarni qayta ishlashga rozilik beradi. Bundan tashqari, Ishtirokchi zarurat tug'ilganda Tashkilotchiga ushbu rozilikda ko'rsatilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun o'zining maxsus toifadagi shaxsiy ma'lumotlari hamda biometrik shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga rozilik beradi.

3.3. Tashkilotchi Aksiya to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlarni e'lon qilish hamda Aksiya shartlarini (mazkur Ofertani) bir tomonlama tartibda o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Bunda o'zgartirishlar kuchga kirishidan kamida 5 (besh) kalendar kun oldin Tashkilotchining rasmiy internet-resurslari orqali xabardor qilish majburiydir.

IV.MUKOFOT (SOVRIN)

4.1. Oferta shartlariga muvofiq, Aksiya o'tkazilishi davrida bir martalik 250 000 (ikki yuz ellik ming) so'm yoki undan ortiq miqdorda To'lovni amalga oshirgan Ishtirokchilar yutuqli tanlovda ishtirok etish huquqiga ega bo'ladilar.

4.2. Sovrinni topshirish jarayonida foto va video tasvirga olishda ishtirok etishdan hamda ushbu materiallardan keyinchalik reklama maqsadlarida foydalanishga rozilik bermagan, shuningdek shaxsni tasdiqlovchi hujjatni (ShTD) taqdim etmagan yoki tegishli hujjatlarni imzolashdan bosh tortgan hollarda Tashkilotchi sovrinni topshirishni rad etishga haqli.

Bunday holatlarda Tashkilotchi mazkur Oferta shartlariga muvofiq aniqlangan zaxira g'olibga sovrinni topshirishni ta'minlaydi.

Sovrin Tashkilotchi tomonidan topshiriladi. Hamkor esa sovrin xaridini moliyalashtirishni Aksiya boshlanishidan oldin Tashkilotchining bank hisob raqamiga pul mablag'larini o'tkazish orqali amalga oshiradi.

4.3. Tashkilotchi soliq agenti sifatida ishtirok etadi hamda G'olibda Sovrinni olish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan barcha soliqlar va majburiy to'lovlarni O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va amaldagi qonunchilikka muvofiq hisoblash hamda to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Tashkilotchi sovrinni uning xususiyatlari reklama materiallarida ko'rsatilganidan yomon bo'lmagan (qiymati past bo'lmagan) analog sovrin bilan almashtirish huquqini saqlab qoladi.

4.4. Sovrinni qo'lga kiritgan Ishtirokchi sovrinni almashtirishni, uning pul ekvivalentini talab qilishni yoki sovrinni boshqa mol-mulk bilan almashtirishni, shuningdek qiymat farqini to'lash yoki qaytarishni talab qilishga haqli emas.

4.5. Tashkilotchi nizoli holatlar yoki sovrinni topshirish jarayonlari bundan mustasno bo'lgan hollarda Ishtirokchi/G'olib bilan yozma muzokaralar yoki boshqa aloqa shakllariga kirishmaslik huquqini saqlab qoladi.

4.6. Tashkilotchi mazkur Ofertani istalgan vaqtda chaqirib olish huquqiga ega.

Tashkilotchi Oferta amal qilishini chaqirib olish (to'xtatib turish) holati yuzaga kelishidan kamida 12 (o'n ikki) soat oldin bu haqdagi bildirishnomani o'zining rasmiy veb-sayti — www.kapitalbank.uz orqali e'lon qilish majburiyatini oladi.

4.7. Talab qilib olinmagan sovrinlar, shuningdek G'oliblar tomonidan sovrinni olishdan voz kechilgan sovrinlar Bank tomonidan o'z ixtiyoriga ko'ra quyidagi maqsadlarda foydalanilishi mumkin:

- Aksiyaning boshqa Ishtirokchilari o'rtasida qayta o'ynalishi;
- Aksiyaning keyingi bosqichlari sovrin jamg'armasiga kiritilishi;
- Bank va Hamkorlarning boshqa marketing tadbirlarida foydalanilishi.

4.8. Bank va Hamkorlar sovrinlarni yetkazib berish majburiyatini olmaydi hamda G'oliblarning sovrinni olish bilan bog'liq xarajatlarini, shu jumladan transport va boshqa tegishli xarajatlarni qoplamaydi.

4.9. Bank tomonidan G'olib e'lon qilingandan so'ng, G'olib Bankka kelishi hamda Bank ko'rsatmalariga muvofiq sovrinni G'olib nomiga rasmiylashtirish uchun zarur bo'lgan barcha rasmiy tartib-taomillarni bajarishi shart.

V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI, FORS-MAJOR

5.1. Tomonlar mazkur Oferta shartlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

5.2. Agar Oferta shartlarining lozim darajada bajarilmasligi Tashkilotchining nazorat doirasidan tashqaridagi holatlar tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, Tashkilotchi bunday holatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

5.3. Tashkilotchi sovrindan foydalanish davrida G'olibning hayoti yoki sog'lig'iga, shuningdek uchinchi shaxslarning mol-mulki, hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan har qanday zarar uchun javobgar bo'lmaydi.

5.4. Tomonlar mazkur Oferta asosida tuzilgan shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar, agar bunday holat Oferta aksept qilinganidan so'ng yuzaga kelgan, tomonlar oldindan ko'ra olmagan va oqilona choralar bilan oldini olish imkoni bo'lmagan favqulodda holatlar (fors-major) natijasi bo'lsa, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi davlat organlari, jumladan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan Tashkilotchining mazkur Oferta bo'yicha majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qiluvchi qarorlar, farmoyishlar va boshqa hujjatlar qabul qilingan hollarda.

5.5. Hamkor mazkur Oferta doirasida Ishtirokchilar va G'oliblar bilan bevosita huquqiy munosabatlarga kirishmaydi hamda ular oldida javobgar bo'lmaydi. Hamkor va Tashkilotchi o'rtasidagi munosabatlar alohida bitim bilan tartibga solinadi.

5.6. Bank sovrin G'olibga topshirilgandan so'ng yuzaga keladigan xarajatlar, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, sovrinni davlat ro'yxatidan o'tkazish bojlari va yig'imlari uchun javobgar emas.

VI. AKSIYA SHARTLARI HAQIDA XABARDOR QILISH TARTIBI

6.1. Aksiya shartlari, uni to'xtatib turish yoki muddatidan oldin tugatish to'g'risidagi ma'lumotlar Bankning rasmiy bo'limlarida, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida hamda internet tarmog'ida e'lon qilinadi.

6.2. Mazkur Aksiya haqidagi batafsil ma'lumotlar hamda Aksiya qoidalari Bankning rasmiy veb-sayti — www.kapitalbank.uz ning "Aksiyalar" bo'limida joylashtiriladi.

6.3. Aksiya haqida qo'shimcha ma'lumotlarni Bankning 1340 qisqa raqamli ishonch telefoni yoki (+998 71) 200-15-15 telefon raqami orqali olish mumkin.

6.4. Aksiya muddatidan oldin tugatilgan, uning muddati uzaytirilgan yoki shartlariga o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, tegishli ma'lumot Bankning rasmiy veb-sayti — www.kapitalbank.uz ning "Aksiyalar" bo'limida e'lon qilinadi.

VII. ПОРЯДОК KELISHMOVCHILIKLARNI KO'RIB CHIQISH TARTIBI

7.1. Mazkur Ofertadan kelib chiqadigan har qanday nizolar tomonlar o'rtasida yozma murojaat asosida tinch yo'l bilan hal etiladi. Murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi va muddatlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq belgilanadi.

7.4. Mazkur Aksiya o'tkazilishi jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolar va kelishmovchiliklar Tashkilotchi va Ishtirokchi o'rtasida o'zaro muzokaralar, halollik, yaxshi niyat va o'zaro tushunish tamoyillari asosida hal etiladi

7.2. Agar nizolar muzokaralar yo'li bilan hal etilmasa, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Tashkilotchi joylashgan hududdagi vakolatli sudda ko'rib chiqiladi.

VIII. OFERTANING AMAL QILISH MUDDATI

8.1. Mazkur Oferta Ishtirokchi tomonidan aksept qilingan paytdan e'tiboran kuchga kiradi va 1.3-bandda ko'rsatilgan muddat tugaguniga qadar yoki Tashkilotchi tomonidan chaqirib olingunga qadar amal qiladi.

IX. BOSHQA SHARTLAR

9.1. Mazkur Ofertada bevosita nazarda tutilmagan barcha masalalarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda ish muomalasi odatlariga amal qiladilar.

9.2. Shartnoma amal qilishi 2026-yil 31-avgustdan boshlab yuzaga kelgan barcha huquqiy munosabatlar va konkludent harakatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

9.3. Agar mazkur Ofertaning ayrim qoidalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq haqiqiy emas deb topilsa, bunday qoidalar Tomonlar o'rtasidagi munosabatlarda qo'llanilmaydi va ularning o'rniga dastlabki maqsadga imkon qadar yaqin bo'lgan yangi qoidalar qo'llaniladi. Ofertaning qolgan qoidalari to'liq yuridik kuchini saqlab qoladi.

9.4. Mazkur Oferta rus tilida e'lon qilingan.

== QOIDALAR TAHRIRINING YAKUNI ==

Qoidalar tahriri rus tilida kelishilgan bo'lib, uning o'zbek tiliga tarjimasi va autentikligi "Kapitalbank" ATB tomonidan hamda uning ixtiyoriga ko'ra ta'minlanadi.